

Shavkat Mirziyoyev g'alla hosilini ko'rди



Prezident Shavkat Mirziyoyev Angor tumanidagi “Angor Surxon g’ururi” klasterida bo’lib, g’alla va g’o’za rivojini ko’zdan kechirdi.

Ushbu klasterning umumiyligi maydoni 11 ming hektardan ziyod. Shuning 4 ming 870 hektarida g’alla yetishtirilmoqda. Bu yil Rossiya Federatsiyasidan kasalliklarga chidamli g’alla navlari keltirib ekilgan. Gektariga 80 sentnerdan hosil olish kutilyapti.

Davlatimiz rahbari kombaynni boshqarib, g’alla o’rdi.

4 ming 656 hektarda paxta qo’shqator ekilgan. Kaliforniya usulida sug’orish natijasida suv sarfini 50 foizga tejashta erishilmoxda.

Prezident soha mutaxassislari bilan suhbatda paxtani qo’shqator usulda ekishni janubiy hududlarda ommalashtirish va bu orqali yuqori hosil olish mumkinligini qayd etdi.

Klasterda sabzavot va dukkakli ekinlar ham yetishtiriladi.





Manba

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI